

## O'QUVCHILARNING IJTIMOIIY INTELLEKTI: OTA-ONALAR BILAN SAMARALI HAMKORLIKNING PEDAGOGIK ASOSLARI

*Toshev Elbek Choriyevich,*

*Surxondaryon viloyati pedagogik mahorat markazi metodik xizmat  
bo'limi metodisti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'quvchilarning ijtimoiy intellektini shakllantirish jarayonida ota-onalar bilan hamkorlikning pedagogik asoslari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Ijtimoiy intellekt shaxsning ijtimoiy muhitda samarali muloqotga kirisha olishi, hamkorlik faoliyatini tashkil etishi hamda ijtimoiy vaziyatlarga moslashuvchan munosabat bildirish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Tadqiqot doirasida ota-onalar bilan hamkorlik o'quvchilarda kommunikativ, ijtimoiy va reflektiv kompetensiyalarni shakllantirishning muhim omili sifatida asoslangan. Pedagogik hamkorlik jarayoni oila va maktabning uzviy aloqasi, tarbiyaviy ta'sirning uyg'unligi hamda shaxs rivojida ijtimoiy muhitning rolini kuchaytirish orqali ijtimoiy intellekt rivojiga xizmat qiluvchi omil sifatida ko'rib chiqilgan. Mazkur hamkorlikning samarali tashkil etilishi o'quvchilarda ijtimoiy tajriba, jamoada ishlash ko'nikmalari va empatik munosabatlarni rivojlantirish imkonini berishi ilmiy dalillar asosida asoslab berilgan.

**Kalit so'z.** ota-onalar bilan hamkorlik, ijtimoiy intellekt, pedagogik hamkorlik, psixologik asoslar, ijtimoiy kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, reflektiv kompetensiya, oila va maktab integratsiyasi, ta'lim jarayoni, ijtimoiy rivojlanish

## СОЦИАЛЬНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ УЧАЩИХСЯ: ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЭФФЕКТИВНОГО ПАРТНЕРСТВА С РОДИТЕЛЯМИ

**Аннотация.** В данной статье с научной и теоретической точки зрения анализируются педагогические основы сотрудничества с родителями в процессе формирования социального интеллекта учащихся. Социальный интеллект понимается как способность человека эффективно общаться в социальной среде, организовывать совместную деятельность и гибко реагировать на социальные ситуации. В рамках исследования сотрудничество с родителями рассматривается как важный фактор в формировании коммуникативных, социальных и рефлексивных компетенций учащихся. Процесс педагогического сотрудничества рассматривается как фактор, способствующий развитию социального интеллекта посредством целостной связи семьи и школы, гармонии воспитательного влияния и усиления роли социальной среды в личностном развитии. Научно доказано, что эффективная организация такого сотрудничества позволяет учащимся развивать социальный опыт, навыки командной работы и эмпатические отношения.

**Ключевые слова.** сотрудничество с родителями, социальный интеллект, педагогическое сотрудничество, психологические основы, социальная компетентность, коммуникативная компетентность, рефлексивная компетентность, интеграция семьи и школы, образовательный процесс, социальное развитие

## SOCIAL INTELLIGENCE OF STUDENTS: PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF EFFECTIVE PARTNERSHIP WITH PARENTS

**Abstract.** *This article analyzes the pedagogical foundations of cooperation with parents in the process of forming students' social intelligence from a scientific and theoretical perspective. Social intelligence is interpreted as a person's ability to effectively communicate in a social environment, organize cooperative activities, and respond flexibly to social situations. Within the framework of the study, cooperation with parents is based on an important factor in the formation of communicative, social, and reflective competencies in students. The process of pedagogical cooperation is considered as a factor serving the development of social intelligence through the integral connection of family and school, the harmony of educational influence, and strengthening the role of the social environment in personal development. It is scientifically proven that the effective organization of this cooperation allows students to develop social experience, teamwork skills, and empathetic relationships.*

**Keywords.** *cooperation with parents, social intelligence, pedagogical cooperation, psychological foundations, social competence, communicative competence, reflective competence, family and school integration, educational process, social development*

### KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uni ijtimoiy hayotga faol tayyorlash va jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan barkamol inson sifatida shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivoji hamda ijtimoiy munosabatlar tizimining murakkablashuvi shaxsdan nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki yuqori darajadagi ijtimoiy intellektni ham talab etmoqda. Ijtimoiy intellekt shaxsning ijtimoiy vaziyatlarni to'g'ri anglash, samarali muloqotga kirishish, hamkorlikni tashkil etish va turli ijtimoiy muammolarni konstruktiv hal etish qobiliyatini o'z ichiga olgan murakkab integrativ sifat sifatida namoyon bo'ladi [1].

Bugungi kunda pedagogika va psixologiya fanida ijtimoiy intellektni shakllantirish masalasi alohida ilmiy yo'nalish sifatida qaralmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy intellekt darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilar nafaqat o'quv faoliyatida, balki ijtimoiy hayotda ham faolroq, moslashuvchanroq va muvaffaqiyatliroq bo'ladilar [2]. Shu sababli ta'lim jarayonida ijtimoiy intellektni

rivojlantirishga yo'naltirilgan samarali pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish muhim ilmiy–amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur jarayonda ta'lim muassasasi bilan bir qatorda oila, xususan ota-onalarning o'рни beqiyosdir. Oila shaxsning dastlabki ijtimoiylashuv muhiti bo'lib, unda bola muloqot, hamkorlik, empatiya va ijtimoiy xulq–atvorning asosiy elementlarini egallaydi. Shu bois o'quvchilarning ijtimoiy intellektini shakllantirishda maktab va ota–onalar o'rtasidagi samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Oila va maktabning uzviy hamkorligi bolaning rivojlanishida yagona ta'sir muhitini yaratib, uning ijtimoiy tajribasini boyitishga xizmat qiladi [3].

Pedagogik tadqiqotlarda ota–onalar bilan hamkorlik turli shakllarda – maslahatlashuvlar, treninglar, seminarlar, loyihaviy faoliyatlar va individual muloqotlar orqali amalga oshirilishi mumkinligi ta'kidlanadi. Bunday hamkorlik o'quvchilarning nafaqat bilim olish jarayoniga, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi [4]. Ayniqsa, ota–onalarning ta'lim jarayoniga faol jalb etilishi bolalarda mas'uliyat hissi, o'z–o'zini boshqarish va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Shu bilan birga, ota–onalar bilan hamkorlikni samarali tashkil etish faqat tashkiliy choralar bilan cheklanmaydi, balki uning chuqur pedagogik va psixologik asoslarini ham inobatga olishni talab etadi. Pedagogik jihatdan bu jarayon ta'lim va tarbiya uyg'unligini ta'minlashga xizmat qilsa, psixologik jihatdan u bolaning emotsional holati, motivatsiyasi va ijtimoiy tajribasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ota–onalar bilan to'g'ri yo'lga qo'yilgan hamkorlik o'quvchining shaxs sifatida o'zini anglashiga, boshqalar bilan samarali munosabat o'rnatishiga va ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topishiga yordam beradi [5].

Zamonaviy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi ota–onalar bilan hamkorlik masalasiga yangicha yondashishni talab etmoqda. Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim natijalarini faqat bilimlar majmui bilan emas, balki shaxsning real hayotiy vaziyatlarda faoliyat yurita olish qobiliyati bilan baholashni nazarda tutadi. Bu esa o'quvchilarda ijtimoiy, kommunikativ va reflektiv kompetensiyalarni shakllantirishda oila bilan hamkorlikni muhim omil sifatida

qarash zaruratini yuzaga keltiradi [6]. Bundan tashqari, integrativ yondashuv ta'lim jarayonida turli omillarni – maktab, oila va ijtimoiy muhitni yagona tizim sifatida qarashni taqozo etadi. Ushbu yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning bilimlarini fragmentar emas, balki tizimli va hayotiy ahamiyatga ega tarzda o'zlashtirishiga imkon yaratadi. Ota–onalar bilan hamkorlikning integrativ modeli esa bolaning rivojlanishiga ko'p tomonlama ta'sir ko'rsatib, uning ijtimoiy intellektini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi[7].

Ta'kidlash joizki, hozirgi kunda ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy intellektni shakllantirish masalasi keng yoritilgan bo'lsa–da, uni ota–onalar bilan hamkorlik nuqtai nazaridan kompleks tarzda o'rganish yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Ayniqsa, pedagogik va psixologik omillarni uyg'unlashtirgan holda ota–onalar bilan hamkorlikning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammo sifatida qolmoqda. Ushbu masalaning ilmiy jihatdan asoslanishi ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni yanada takomillashtirishga, o'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashga va ularni zamonaviy jamiyat talablariga mos holda tarbiyalashga xizmat qiladi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ijtimoiy intellekt tushunchasi dastlab XX asr boshlarida ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, u shaxsning ijtimoiy muhitni anglash, boshqa insonlar bilan samarali muloqot o'rnatish hamda ijtimoiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini ifodalaydi. Keyingi tadqiqotlarda mazkur tushuncha yanada kengaytirilib, empatiya, kommunikativlik, ijtimoiy moslashuv va reflektiv tafakkur kabi komponentlarni o'z ichiga oluvchi murakkab integrativ hodisa sifatida talqin qilinmoqda.

Ijtimoiy intellekt masalasiga oid g'oyalar aslida qadimiy va o'rta asr Sharq mutafakkirlari asarlarida ham uchraydi. Xususan, Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida shaxsning jamiyat bilan uyg'unlikda yashashi, o'zaro hamkorlik va ijtimoiy munosabatlarni to'g'ri tashkil etish zarurligini ta'kidlaydi[2].

Ibn Sino esa inson kamolotida oila va tarbiyaning o'rni beqiyos ekanini qayd etib, bola shaxsining shakllanishida yaqin ijtimoiy muhit, ayniqsa ota–onalarning ta'siri hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ilmiy asoslaydi[2]. Alisher Navoiy

asarlarida ham insoniy munosabatlar, axloqiy fazilatlar va ijtimoiy muomala madaniyati masalalari chuqur yoritilgan bo'lib, bu qarashlar ijtimoiy intellektning dastlabki nazariy ildizlari sifatida baholanishi mumkin[2].

Zamonaviy o'zbek pedagogika fanida ham ijtimoiy rivojlanish va shaxs kamolotida oila hamkorligining o'rnini keng yoritilgan. Jumladan, M.Q. Quronov oila tarbiyasi shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida asosiy omil ekanini ta'kidlab, ota-onalarning ta'lim jarayonidagi faol ishtiroki o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishini asoslab beradi[2]. J.G.Yo'ldoshev esa zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash jarayonida oila va maktab hamkorligini kuchaytirish zarurligini qayd etadi[7]. V.M.Karimova ijtimoiy psixologik yondashuv nuqtai nazaridan shaxsning ijtimoiy rivojida muloqot va emotsional muhitning ahamiyatini alohida ko'rsatib o'tadi[5].

So'nggi yillarda ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning ustuvorligi ota-onalar bilan hamkorlik masalasiga yangicha qarashni talab etmoqda. Kompetensiyaviy yondashuv shaxsni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlashga yo'naltirilgan bo'lib, bunda ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish muhim o'rin tutadi. Bu jarayonda oila bilan uzviy hamkorlik o'quvchilarning ijtimoiy tajribasini boyitish va ularning ijtimoiy intellektini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, integrativ yondashuv ta'lim jarayonini yaxlit tizim sifatida tashkil etib, unda maktab, oila va ijtimoiy muhitning o'zaro uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy intellektni shakllantirish masalasi keng o'rganilgan bo'lsa-da, uni aynan ota-onalar bilan hamkorlik paradigmalari asosida kompleks tarzda tadqiq etish yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Ayniqsa, pedagogik va psixologik omillarni integratsiyalashgan holda oila va maktab hamkorligini tashkil etish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammo bo'lib qolmoqda.

Shu bois mazkur tadqiqot o'quvchilarning ijtimoiy intellektini shakllantirishda ota-onalar bilan hamkorlikning pedagogik va psixologik asoslarini kompleks tahlil qilishga yo'naltirilgan bo'lib, u mavjud ilmiy qarashlarni boyitadi hamda ta'lim amaliyoti uchun samarali metodik tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot metodologiyasi o'quvchilarning ijtimoiy intellektini shakllantirishda ota-onalar bilan hamkorlikning pedagogik va psixologik asoslarini aniqlash, ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligini ilmiy asoslash hamda O'zbekiston ta'lim tizimi sharoitida amaliy joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Tadqiqot metodologiyasi milliy ta'lim siyosati, davlat ta'lim standartlari, zamonaviy pedagogik konsepsiyalar hamda oila va maktab hamkorligiga oid ilmiy qarashlarga tayangan holda shakllantirildi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi, kompetensiyaviy yondashuv, integrativ yondashuv hamda ijtimoiy-psixologik rivojlanish nazariyalari tanlandi. Ushbu yondashuvlar o'quvchini ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida qarash, uning ijtimoiy tajribasini boyitish va ota-onalar bilan hamkorlik orqali real ijtimoiy vaziyatlarda samarali muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kompetensiyaviy yondashuv mamlakatimiz ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim yo'nalishi sifatida qaralib, unda o'quvchilarda ijtimoiy, kommunikativ va reflektiv kompetensiyalarni shakllantirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Mazkur tadqiqotda ijtimoiy intellekt aynan ushbu kompetensiyalar majmui sifatida talqin qilinib, uni shakllantirishda ota-onalar bilan hamkorlik muhim omil sifatida asoslab berildi.

Integrativ yondashuv esa ta'lim jarayonini yaxlit tizim sifatida tashkil etib, unda maktab, oila va ijtimoiy muhitning uzviy aloqadorligini ta'minlashga yo'naltirilgan. Ushbu yondashuv asosida ota-onalar bilan hamkorlik pedagogik jarayonning ajralmas qismi sifatida qaralib, o'quvchilarning ijtimoiy tafakkuri, hamkorlik madaniyati va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, STEAM elementlari, loyihaviy faoliyat va oilaviy ishtirokga asoslangan mashg'ulotlar ijtimoiy intellektni rivojlantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotda 48 nafar 5–7–sinf o'quvchilari va 48 nafar respondent ota-ona qamrab olinib, ularning ijtimoiy intellekt darajasi hamda ota-onalar bilan hamkorlik jarayonidagi faolligi o'rganildi.

## NATIJALAR

O'tkazilgan ilmiy–nazariy tahlil hamda tajriba–sinov ishlari natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning ijtimoiy intellektini shakllantirishda ota–onalar bilan hamkorlikning pedagogik va psixologik asoslarini tizimli ravishda qo'llash zamonaviy ta'lim tizimining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy intellekt shaxsning ijtimoiy muhitni anglash, samarali muloqotga kirishish, hamkorlikni tashkil etish va turli ijtimoiy vaziyatlarga moslashuvchan munosabat bildirish qobiliyatlarini o'zida mujassamlashtirgan murakkab integrativ sifat sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari mazkur sifatni rivojlantirishda oila va maktab hamkorligining muhim omil ekanini tasdiqlaydi.

Tajriba davomida ota–onalar bilan hamkorlikka asoslangan pedagogik model (muntazam muloqot, ota–onalar ishtirokidagi loyihaviy faoliyat, trening va seminarlar) joriy etildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ushbu yondashuv o'quvchilarning ijtimoiy faolligi, kommunikativligi va jamoaviy faoliyatdagi ishtirokini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlarning ota–onalar bilan hamkorlik orqali uyg'unlashtirilishi ijtimoiy intellektni shakllantirish jarayonida sinergetik samarani yuzaga keltiradi. Kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilarning individual ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilsa, integrativ yondashuv ushbu jarayonni oila va ta'lim muhiti bilan uzviy bog'lash imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari ta'lim tizimida ota–onalar bilan hamkorlikni tizimli tashkil etish davlat ta'lim standartlari va tarbiyaviy siyosat talablari bilan mos kelishini ko'rsatdi. Oila va maktab o'rtasidagi uzviy aloqaning kuchayishi o'quvchilarning ijtimoiy moslashuv darajasini oshirishi, ularning muloqot madaniyati va mas'uliyat hissini rivojlantirishi aniqlandi.

Tajriba–sinov natijalari asosida o'quvchilarning ijtimoiy intellekt darajasida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi.

Daraja	Tajriba oldin	Tajriba keyin
Yuqori	17%	31%
O'rta	48%	45%


Past	35%	24%
------	-----	-----

Olingan natijalar tahlili quyidagilarni ko'rsatadi:

yuqori darajadagi ijtimoiy intellektga ega o'quvchilar ulushi 14% ga oshdi;

past darajadagi ko'rsatkich 11% ga kamaydi;

o'quvchilarning muloqot faolligi, hamkorlik ko'nikmalari va ijtimoiy moslashuv darajasi sezilarli ravishda yaxshilandi.



### 1-rasm. O'quvchilarning ijtimoiy intellekt darajasidagi o'zgarishlar (tajriba oldin va keyin)

Mazkur o'zgarishlar ota-onalar bilan hamkorlikning maqsadli va tizimli tashkil etilishi natijasida yuzaga kelgan bo'lib, bu jarayon o'quvchilarning ijtimoiy tajribasini boyitish, emotsional muhitni yaxshilash va ularning o'zaro munosabatlar madaniyatini shakllantirishda muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo'ladi.

### MUHOKAMA

Tadqiqot natijalarini muhokama qilish shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning ijtimoiy intellektini shakllantirishda ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish zamonaviy ta'lim nazariyasi va amaliyotida murakkab hamda ko'p omilli pedagogik jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy intellekt shaxsning faqat individual psixologik xususiyati emas, balki oila muhiti, ta'lim jarayoni va ijtimoiy tajriba bilan uzviy bog'liq holda shakllanuvchi integrativ sifat hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, oila va maktab o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish ijtimoiy intellekt rivojining

muhim sharti sifatida e'tirof etiladi.

Olingan natijalar ota–onalar bilan tizimli hamkorlik asosida tashkil etilgan pedagogik faoliyat o'quvchilarning muloqot madaniyati, empatik munosabatlari va jamoaviy faoliyatdagi faolligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Bu holat shuni anglatadiki, ijtimoiy intellektni rivojlantirish faqat sinf ichidagi pedagogik ta'sirlar bilan cheklanmaydi, balki oila muhitida shakllanuvchi ijtimoiy tajriba bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois ota–onalarning ta'lim jarayoniga faol jalb etilishi o'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur natijalar kompetensiyaviy yondashuv doirasida shakllantirilayotgan ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalar oila bilan hamkorlik orqali yanada samarali rivojlanishini ko'rsatadi. Kompetensiyaviy yondashuv shaxsning real hayotiy vaziyatlarda faoliyat yuritish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, ota–onalar bilan hamkorlik ushbu jarayonni amaliy jihatdan boyitadi. Oila muhitida olingan ijtimoiy tajriba o'quvchining maktabdagi faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatib, uning ijtimoiy moslashuv darajasini oshiradi.

Integrativ yondashuv nuqtai nazaridan qaralganda, oila va maktabning yagona pedagogik tizim sifatida faoliyat yuritishi ijtimoiy intellektni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Integrativ yondashuv ta'lim jarayonini fragmentar emas, balki yaxlit tizim sifatida tashkil etishni taqozo etadi. Bu esa o'quvchilarning bilimlari, ko'nikmalari va ijtimoiy tajribasini uyg'un holda rivojlantirishga xizmat qiladi. Ota–onalar bilan hamkorlikning integrativ modeli o'quvchilarda hamkorlik, mas'uliyat va ijtimoiy faollik kabi sifatlarni shakllantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatdiki, ota–onalar bilan hamkorlikning psixologik jihatlari ham muhim ahamiyatga ega. Oila muhitidagi ijobiy emotsional holat, qo'llab–quvvatlovchi munosabat va ochiq muloqot o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi hamda ularning ijtimoiy faoliyatga tayyorgarligini kuchaytiradi. Bu esa ijtimoiy intellektning emotsional va xulqiy komponentlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning ijtimoiy intellektni shakllantirishda ota–onalar bilan hamkorlikni kompetensiyaviy

va integrativ yondashuvlar asosida tashkil etish pedagogik jihatdan asoslangan va samarali yo'nalish hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarning ijtimoiy faolligi, muloqot madaniyati va jamoaviy faoliyatdagi ishtirokini kuchaytirib, ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta'minlash imkonini beradi.

### XULOSA

Zamonaviy ta'lim tizimi sharoitida o'quvchilarning ijtimoiy intellektini shakllantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy intellekt shaxsning ijtimoiy muhitni anglash, samarali muloqotga kirishish, hamkorlik faoliyatini tashkil etish hamda ijtimoiy vaziyatlarga moslashuvchan munosabat bildirish qobiliyatlarini o'zida mujassamlashtirgan murakkab integrativ sifat hisoblanadi. Mazkur sifatni rivojlantirish o'quvchilarning nafaqat ta'lim jarayonidagi faolligini, balki ularning jamiyatda muvaffaqiyatli moslashuvini ham ta'minlaydi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o'quvchilarning ijtimoiy intellektini shakllantirishda ota-onalar bilan hamkorlikning pedagogik va psixologik asoslarini tizimli ravishda qo'llash yuqori samaradorlikka ega. Oila va maktabning uzviy aloqasi ta'lim jarayonida yagona tarbiyaviy muhitni yaratib, o'quvchilarning ijtimoiy tajribasini boyitadi, ularning muloqot madaniyati va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilarda ijtimoiy, kommunikativ va reflektiv kompetensiyalarni shakllantirishda muhim metodologik asos sifatida namoyon bo'ldi. Shu bilan birga, integrativ yondashuv ta'lim jarayonini oila, maktab va ijtimoiy muhitning o'zaro uyg'unligi asosida tashkil etishga imkon yaratib, ijtimoiy intellektni rivojlantirish jarayonining samaradorligini oshirishi aniqlandi.

Tajriba-sinov natijalari ham mazkur xulosalarni tasdiqladi. Xususan, ota-onalar bilan hamkorlikka asoslangan pedagogik modelni joriy etish natijasida o'quvchilarning ijtimoiy intellekt darajasida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi: yuqori daraja ko'rsatkichi sezilarli oshdi, past daraja esa kamaydi. Bu esa oila va maktab hamkorligining o'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi.

Tadqiqot natijalari ota-onalar bilan hamkorlikni samarali tashkil etish o'quvchilarning emotsional holatini barqarorlashtirish, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish va ijtimoiy faoliyatga tayyorgarligini kuchaytirishda muhim omil ekanini ko'rsatdi. Bu esa ijtimoiy intellektning kognitiv, emotsional va xulqiy komponentlarini kompleks rivojlantirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning ijtimoiy intellektini shakllantirishda ota-onalar bilan hamkorlikni kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlar asosida tashkil etish zamonaviy ta'lim tizimi uchun ilmiy jihatdan asoslangan va amaliy jihatdan samarali yo'nalish hisoblanadi. Mazkur yondashuvlar ta'lim jarayonini takomillashtirish, o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish hamda ularni zamonaviy jamiyat talablariga mos ravishda tarbiyalashga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yo'ldoshev J.G'. **Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat asoslari.** – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 256 b.
2. Quronov M.Q. **Oila pedagogikasi.** – Toshkent: Ma'naviyat, 2016. – 224 b.
3. Xoliqov A.A. **Pedagogik mahorat.** – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 240 b.
4. Tursunov I.T. **Pedagogika nazariyasi va amaliyoti.** – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 280 b.
5. Karimova V.M. **Ijtimoiy psixologiya.** – Toshkent: Fan, 2020. – 312 b.
6. Muslimov N.A. **Kasbiy ta'lim metodikasi.** – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 276 b.
7. Yo'ldoshev J.G'. **Ta'lim jarayonini loyihalash va boshqarish.** – Toshkent: Innovatsiya, 2021. – 248 b.
8. Bronfenbrenner U. (1979). *The Ecology of Human Development.* Cambridge: Harvard University Press.
9. Vygotsky L.S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.* Cambridge: Harvard University Press.
10. Goleman D. (). *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ.* New York: 1995, Bantam Books.